



FARG'ONA VILOYATI QUVA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 12-iyul

196-11-156-Q/25

Quva tuman hokimligi

Quva tumani hokimining 2022-yil 18-iyuldagи 270-11-156-Q/22-son “Quva tuman hokimligi huzuridagi Jamoat Kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida

Quva tumanida mahalliy davlat boshqaruvi organlari va jamoatchilik o‘rtasida muloqot o‘rnatish, aholiga davlat organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyul kungi “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari tuzish to‘g‘risida”gi PQ-3837-son Qarori hamda 2020-yil 3-mart kungi “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmonida belgilangan vazifalarni bajarish hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan:

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyuldagи “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari tuzish to‘g‘risida”gi PQ-3837-son Qarori hamda 2020-yil 3-mart kungi “2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmonining barcha mas’ullar tomonidan o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi ta’minlansin.

2. Quva tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda Kengash deb yuritiladi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Kengash nizomi 2-ilovaga muvofiq, Kengash a’zolarining odob-ahloq qoidalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Quva tuman bo‘limi boshlig‘i, (ishchi guruh rahbari) A.Isaxonovga jamoatchilik Kengashining 2025-2026-yillar uchun ish rejasini ishlab chiqish vazifasi yuklansin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Quva tumani hokimining 2022-yil 18-iyuldagи 270-11-156-Q/22-son “Quva tuman hokimligi huzuridagi Jamoat Kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bekor qilinsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



X.Umarov

Quva tumani hokimining
2025-yil 12-iyuldag'i
196-11-156-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Quva tuman hokimligi huzuridagi “Jamoatchilik Kengashi” a'zolarining
RO'YXATI**

| № | F.I.Sh | Ish joyi va lavozimi |
|---------------------------------------|---|--|
| 1. | Isaxonov Abduvali Xomidovich | O'zbekiston mahallalari uyushmasi Quva tuman bo'limi boshlig'i, Jamoatchilik kengashi raisi |
| 2. | Ashurov Zoxidjon Ortikovich | "Nuroniy" jamg'armasi Quva tumani bo'limi raisi, Jamoatchilik kengashi raisi o'rinnbosari |
| 3. | Tilavoldiyev To'lanboy Shamshiddin o'g'li | O'zbekiston mahallalari uyushmasi Quva tuman bo'limi tashkiliy nazorat yetakchi mutaxassisi, Jamoatchilik kengashi kotibi |
| Jamoatchilik kengashi a'zolari | | |
| 4. | Nodirov Rustamjon Nematillayevich | Xalq deputatlari Quva tumani Kengashi Kotibiyati mudiri |
| 5. | Abduraximov Baxodir Abdullaevich | Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati |
| 6. | Raximov Murodjon Mamadaliyevich | Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati |
| 7. | Melibayev Maxamatsoli Sobirovich | Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati |
| 8. | Oripova Odinaxon Abdullayevna | Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati |
| 9. | Xakimova Manzuraxon Voxidovna | Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati |
| 10. | Alieva Zuxraxon Karimovna | Quva tumani "Quva hayoti" gazetasi bosh muxarriri, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi |
| 11. | Axmadalievna Manzuraxon | Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati |
| 12. | Nurmatov Abdulaziz O'rınboyevich | Mehnat faxriysi |

| | | |
|------------|--|--|
| 13. | G'ofurov Obidjon G'ofurovich | Mehnat faxriysi |
| 14. | Umarov Mansurjon Nazirjonovich | Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Quva tumani Kengashi raisi |
| 15. | Usmonov Xomidjon Mashraboevich | Quva tumani fermerlar Kengashi raisi |
| 16. | Qo‘ziboeva Mashxuraxon Usmonovna | Quva tumani “Quva agro pilla” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari |
| 17. | Siddikov Qaxramon Zokirovich | Quva tumani “Qosim karvon” fermer xo‘jaligi rahbari |
| 18. | Arslanov Murodiljan | Quva tumani “Doctor Arslnov”xususiy tibbiyot klinikasi bosh vrachi |
| 19. | Iminchayev Abduqayumjon Abdubannopovich | Quva tumani “Rasta” savdo kompleksi aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi |
| 20. | Uzaqov Ulug‘bek Tashkanboyevich | Quva tumani “Dehqon bozori” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi |
| 21. | Saliyev Nodirbek To‘lqinovich | Quva tumani Tinchlik mahalla fuqarolar yig‘ini raisi |
| 22. | Qurbanova Dilbaroy Raxmatillayevna | Quva tumani Bo‘ston mahalla fuqarolar yig‘ini xotin- qizlar faoli |
| 23. | Abdurazakov Kamronmirzo Farxodjon o‘g‘li | Quva tumani yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i |

Quva tumanı hokimining
2025-yıl 12-iyuldagı
196-11-156-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Quva tumanı hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Quva tumanı hokimligi xuzuridagi jamoatchilik kengashi nizomi (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda - jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.
3. Jamoatchilik kengashi Quva tumanı hokimligi huzurida tashkil etiladi va uning faoliyati mazkur davlat organining bo‘linmalari hamda tasarrufidagi tashkilotlariga tatbiq etiladi.
4. Jamoatchilik kengashi Quva tumanı xokimi qarori bilan tashkil etiladi.
5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.
6. Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.
7. Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom va unga kiritiladigan o‘zgartishlar hamda qo‘sishchalar Quva tumanı xokimi qarori bilan tasdiqlanadi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari,
huquqlari va majburiyatları**

8. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihamalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha davlat organi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, davlat organining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog'lab turadigan «ko'priklar» rolini bajarish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan davlat organining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sosiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborotkommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

- Quva tuman hokimligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

- Quva tuman hokimligi faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirdarlari monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- Quva tuman hokimligi faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shartsharoitlarni o'rghanish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- Quva tuman hokimligi faoliyati bo‘yicha fuqarolar o‘rtasida o‘tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirdarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- davlat organlari xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shartsharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo‘shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo‘yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo‘yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

9. Jamoatchilik kengashi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Quva tuman hokimligining faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat organiga tegishli takliflar kiritadi;

- Quva tuman hokimligining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

- Quva tuman hokimligi faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni mazkur davlat organi xodimlari o‘rtasida muhokama qilishga bag‘ishlangan tadbirdarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihalarini, tadbirdar rejalarini va davlat organi faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

- Quva tuman hokimligi rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o‘tkazadi;

- Quva tuman hokimligi xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shartsharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarini hal etishda ko'maklashadi; xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha davlat organi xodimlari o'rtasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

- Quva tuman hokimligida, uning hududiy bo'linmalarida va tasarrufidagi tashkilotlarida sog'lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash, xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni davlat organi faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

- davlat organi faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiylar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

- davlat organi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

- o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

10. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

- Quva tuman hokimligi tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

- Quva tuman viloyat hokimligi, jumladan uning hududiy bo‘linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarining binolari (xonalari) va boshqa ob’yektlarini davlat organi tomonidan belgilangan tartibda borib ko‘rish;
- Quva tuman hokimligi, uning hududiy bo‘linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;
- Quva tuman hokimligi faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan davlat organining axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;
- Quva tuman hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta’minlashda ishtirok etish;
- jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga davlat organi tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish; davlat organi xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy-maishiy va xizmat shartsharoitlari bilan tanishish;
- jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;
- yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

11. Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatini amalga oshirishda:

- jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;
- davlat organi faoliyati bilan bog‘liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklov larga amal qilishi;
- davlat organi va uning mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi; davlat organi va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko‘rsatishi uchun to‘sqinlik qilmasligi;
- fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘ymasligi;

- jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo‘lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

3-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

12. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o‘rnbosari, kotibi va a’zolari kiradi.

Jamoatchilik kengashi tarkibining 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etadi.

13. Jamoatchilik kengashi a’zoligiga, qoida tariqasida, davlat organida namunali xizmat ko‘rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘e’tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Jamoatchilik kengashining umumiy a’zolari soni 15 nafardan kam bo‘lmasligi zarur.

14. Jamoatchilik kengashining tarkibi Jamoatchilik palatasi bilan kelishilgandan so‘ng davlat organi rahbarining qarori bilan har 2 yilda tasdiqlanadi.

15. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o‘rnbosari, kotibi va a’zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

- ular tomonidan jamoatchilik kengashi tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

- jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

- ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

- vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

16. Jamoatchilik kengashining tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va unga kiritilgan o‘zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida davlat organining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

17. Jamoatchilik kengashining raisi:

- jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiylah rahbarlik qiladi;
- jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;
- jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;
- jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;
- jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;
- jamoatchilik kengashi a’zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;
- Quva tuman hokimliginining rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarkibi bo‘yicha takliflar kiritadi va uni davlat organi rahbari bilan kelishadi;
- jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan davlat organi rahbari bilan hamkorlik qiladi;
- jamoatchilik kengashining samarali ishini ta’minalash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o‘ribbosari bajaradi.

19. Jamoatchilik kengashi raisining o‘ribbosari:

- rais yo‘qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;
- jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

- fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

- jamoatchilik kengashining samarali ishlarini ta’minlash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Jamoatchilik kengashining kotibi:

- jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta’minlash masalalarini hal qiladi;

- jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minlaydi, davlat organi xodimlaridan zarur hujjatlar va ma’lumotlarni so‘rab oladi;

- kun tartibiga muvofiq jamoatchilik kengashi majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi; - jamoatchilik kengashi o‘tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro‘yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

- jamoatchilik kengashining a’zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o‘tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

- jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritadi;

- jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning jamoatchilik kengashi a’zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo‘natilishini ta’minlaydi;

- jamoatchilik kengashining samarali ishslashini ta’minlash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

21. Jamoatchilik kengashining a’zolari o‘z majlislarida ko‘rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o‘z vakolatini boshqalarga o‘tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkonи bo‘lmagan holatlarda, uning a’zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo‘yicha o‘z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko‘rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik kengashining a'zolari:

- o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun davlat organi tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirdarda ishtirok etadi;

- jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihamini tayyorlaydi, ularni jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejali bajarilishini ta'minlaydi;

- davlat organi faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

- davlat organi xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni jamoatchilik kengashiga kiritadi;

- jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

- jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

- jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejali asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

23. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

25. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o‘rnbosari olib boradi.

Jamoatchilik kengashining majlisida davlat organi rahbari, uning o‘rnbosarlar va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

26. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o‘tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o‘tkaziladigan sana e’lon qilinadi.

27. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

28. Jamoatchilik kengashining har bir a’zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo‘yicha o‘zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo‘sib qo‘yiladi.

29. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda davlat organiga, jamoatchilik kengashi a’zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

30. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug‘ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a’zolari bilan kelishilgan holda so‘rov yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

Davlat organi jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo‘silmagan hollarda, jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o‘n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e’tirozini yozma shaklda yuboradi.

31. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a’zolari ko‘magida jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o‘rganadi va ko‘rib chiqadi, zarur bo‘lgan hollarda, jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash davlat organi tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ekanligi davlat organining rahbari tomonidan nazorat qilinadi.

34. Jamoatchilik kengashining va davlat organi rahbarining jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Quva tumani hokimining
2025-yil 12-iyuldagি
196-11-156-Q/25-son qaroriga
3-ilova

Quva tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashi a'zolarining ODOB-AXLOQ QOIDALARI

1-bob. Umumiy qoidalari

1. O'zbekiston Respublikasi Farg'on'a viloyati Quva tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi a'zolarining odob-axloq qoidalari (bundan buyon matnda Odob-axloq qoidalari deb ataladi) egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar a'zolarning kasbiy odob-axloqining umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari yig'indisidan iborat.
2. Odob-axloq qoidalari huquqbazarlikning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shartsharoitlarini bartaraf etishga, jamoatchilik kengashi a'zolarida yuksak huquqiy ongni shakllantirish, ularni O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan.
3. Jamoatchilik kengashi a'zolarining Odob-axloq qoidalari bilan imzo qo'ydirgan majburiyati ularning kengash a'zoligiga qabul qilingan kundan e'tiboran kelib chiqadi.

Jamoatchilik kengashi a'zolari Odob-axloq qoidalari bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtiriladi.

4. Jamoatchilik kengashi a'zolari qonun hujjatlari hamda Odob-axloq qoidalari talablariga rioya etishlari shart.

Odob-axloq qoidalari rioya etish Jamoatchilik kengashi a'zolarining kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

2-bob. Jamoatchilik kengashi a'zolari xizmatdagi xulq-atvorining asosiy prinsiplari va qoidalari

5. Jamoatchilik kengashi a'zolari o'z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;
- davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;
- adolatlilik, halollik va xolislik;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

6. Jamoatchilik kengashi a'zolari quyidagi qoidalarga amal qiladi:

- xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat’iy rioya etish;
- O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda mazkur Odob-axloq qoidalalariga amal qilish;
- o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
- o‘z faoliyatini qonun hujjatlarida va ichki hujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
- normativ-huquqiy va idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va taqiqlarga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini og‘ishmay bajarish;
- o‘z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxs, guruh yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta’siridan mustaqil bo‘lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, fuqarolarni kamsitish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi yoki xizmat vazifalarini amalga oshirishi jarayonida qonun talablariga zid bo‘lgan biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlardan tiyilish, shuningdek o‘z xizmat faoliyatiga birorbir ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga barham berish;

- xizmat vazifalarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va malakaga ega bo‘lish hamda kasb-mahoratini doimiy ravishda oshirib borish;

- Jamoatchilik kengashiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida berilgan vakolatlarni qonun hujjatlari doirasida amalga oshirish, sansalorlik va ko‘zbo‘yamachilik holatlariga yo‘l qo‘ymaslik; xizmat mavqeidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdar shaxslari faoliyatiga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish maqsadida foydalanmaslik;

- O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarining madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko‘maklashish;

- yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish, shu jumladan yurish-turish, kiyinish va muomalada o‘z hamkasblariga ijobiy tomondan o‘rnak bo‘lish;

- shaxsiy manfaatdorligi munosabati bilan xizmat vazifalarini xolisona bajarishiga to‘sinqinlik qilishi yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holatlar haqida o‘z rahbariga zudlik bilan ma’lum qilish.

7. A’zolarning ish joyida, shu jumladan, hokimlik binosi va hududida hamda boshqa jamoat joylarida, tamaki mahsulotini iste’mol qilish uchun maxsus ajratilgan joylar va (yoki) xonalar bundan mustasno, shuningdek jamoat transportining barcha turlarida tamaki mahsulotini iste’mol qilish taqiqlanadi.

8. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, Jamoatchilik kengashi a’zolariga o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko‘rish taqiqlanadi.

9. Jamoatchilik kengashi a’zolari korrupsiya holatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasiga faol ko‘maklashishi shart.

Jamoatchilik kengashi a’zolari o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko‘zlagan holda muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o‘zi yoki vositachi orqali pul, qimmatli qog‘ozlar, moddiy boyliklar, sovg‘alar, ssudalar, mulkiy mohiyatga molik bo‘lgan xizmatlar (shu jumladan, transport vositasidan foydalanish, davolanish va boshqalar) kabi takliflar bilan murojaat qilingan taqdirda, u noqonuniy xatti-

harakatlarni to‘xtatishni talab qilishi va taklif qilgan shaxsni tegishli javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirishi lozim.

Jamoatchilik kengashi a’zolari poraga moyillik sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakatlarga va so‘zlarga yo‘l qo‘ymasligi, mazkur holat bo‘yicha, shuningdek unga boshqa davlat xizmatchilari tomonidan huquqbuzarlik sodir etilganganligi ma’lum bo‘lgan holatlarda zudlik bilan tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlarini yozma tarzda xabardor qilishi, buning imkoniyati bo‘lmagan holatlarda esa, telefon orqali xabar berishi yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol murojaat etishi lozim.

Jamoatchilik kengashi rahbari qonun hujjatlari talablarining buzilishi fakti to‘g‘risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun, xuddi shuningdek boshqacha shaklda tanqid qilganligi uchun kengash a’zolarini ta’qib qilinishiga yo‘l qo‘ylmasligini ta’minlashi kerak.

10. Jamoatchilik kengashi a’zolari kasbiy faoliyati davomida o‘ziga ma’lum bo‘lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta’minlash yuzasidan barcha choralarni ko‘rishi shart.

11. Jamoatchilik kengashi rahbari xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soqlik va adolatda o‘rnak bo‘lishi, ma’naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko‘maklashishi, shuningdek o‘z bo‘ysunuvidagi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, boshqa qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

12. Jamoatchilik kengashi a’zolari o‘zlarining xizmatdagi xulq-atvori bilan jamoada boshqa xodimlar bilan o‘zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik muhiti qaror topishiga intilishlari lozim.

Xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shart. Xodim o‘ziga bo‘ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida ish sharoitlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog‘liq holda xodimning tashqi ko‘rinishi fuqarolarning davlat organiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga yordam berishi, umumiy qabul

qilingan ish uslubiga muvofiq bo‘lishi, ular rasmiyliligi, vazminligi va tartibliligi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

A’zolar xizmatdan tashqari vaqtida umumiyligi qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir emasligi, bunday xatti-harakatlarda qatnashmasligi va ularga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

13. Jamoatchilik kengashi a’zolari o‘zlarining mansab mavqeい tufayli ma’lum bo‘lgan sir saqlanadigan ma’lumotdan, shuningdek maxfiy va xizmat doirasida foydalanish uchun belgisi mavjud bo‘lgan hamda boshqa turdagি konfidensial axborotdan kasbi bilan bog‘liq bo‘lмаган faoliyatida foydalanishi yoki uni oshkor qilishi mumkin emas.

14. Jamoatchilik kengashi a’zolari yozma va og‘zaki murojaatlar bilan kelgan fuqarolar va yuridik shaxslarning vakillari bilan munosabatda xushmuomala, muhokama etiladigan masala yuzasidan o‘z fikrini tegishli qonun va qonunosti hujjatlarga asoslangan holda qisqa va aniq ifoda etishi talab etiladi.

15. Jamoatchilik kengashi a’zolari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda jismoniy va yuridik shaxsga ularning huquqlariga, erkinliklariga hamda qonuniy manfaatlariga daxldor hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan, agar ularda davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi hamda boshqa konfidensial ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlariga, erkinliklariga hamda qonuniy manfaatlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazmasa, tanishib chiqish imkoniyatini ta’minlashi, murojaatlarni ko‘rib chiqishda qonunga xilof harakatga (harakatsizlikka) barham berishga doir chora-tadbirlarni darhol ko‘rishi, o‘z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelayotgan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashi, murojaat etganligi munosabati bilan jismoniy shaxs, uning vakili, ularning oila a’zolari, yuridik shaxs, uning vakili va yuridik shaxs vakilining oila a’zolari ta’qib qilinishiga belgilangan tartibda barham berishi shart.

16. Jamoatchilik kengashi a’zolari jismoniy va yuridik shaxs to‘g‘risidagi, murojaatga taalluqli bo‘lмаган ma’lumotlarni aniqlashga harakat qilmasligi, jismoniy shaxsning iltimosiga ko‘ra uning shaxsiga doir biron-bir ma’lumot oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

17. Turmushda odob-axloq qoidalariiga rioya etish Jamoatchilik kengashi a'zolari xulqatvorining tarkibiy qismi hisoblanib, davlat xizmatchisiga mos kamtarona kiyinishi talab etiladi.

18. Jamoatchilik kengashi a'zolari oila a'zolari, qarindoshlari va boshqa shaxslar tomonidan uning xizmat vazifalariga va faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishiga, ular tomonidan jamoatchilik kengashi obro'si va faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

3-bob. Manfaatlar to'qnashuvi

19. Jamoatchilik kengashi a'zolari o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak.

Jamoatchilik kengashi a'zolari shaxsiy manfaatdorligi uning shaxsan o'zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo'ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko'rish yoki afzalliklarga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda kengash a'zolari o'z rahbarini darhol xabardor qilishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

4-bob. Odob-axloq qoidalariini buzganlik uchun javobgarlik

20. Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan Odob-axloq qoidalaring buzilishi uni nizomda belgilangan tartibda kengash a'zoligidan chikarishga asos bo'lishi mumkin.

21. Ushbu Odob-axloq qoidalari normalarining buzilishlari jamoatchilik kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Odob-axloq qoidalari buzilgan deb topilgan holatlar yuzasidan Jamoatchilik kengashi rahbariga jazo chorasi qo'llash to'g'risida taklif kiritiladi. Kengash a'zosining xulq-atvorini hisobga olgan holda unga nisbatan kelgusida Odob-axloq

qoidalarini buzish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi to‘g‘risida ogohlantirish bilan cheklanish mumkin.

Kengash a’zosi o‘zi yo‘l qo‘ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko‘rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o‘zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek tegishli rahbarning qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

5-bob. Yakuniy qoida

22. Ushbu Odob-axloq qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi bayoniga asosan amalga oshiriladi.